

IZBOSKAN TUMANI AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI

Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludiga bag‘ishlangan

“Behbudiyning jadidchilikdagi o‘rni”


mavzusida



VIRTUAL KO‘RGAZMA

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING HAYOTI VA IJODI

- ▶ Mahmudxo'ja Behbudiy - buyuk ma'rifatparvar, yozuvchi, publitsist, dramaturg va jamoat arbobi, jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri. U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida muftiy oilasida dunyoga keldi. Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo'ja urganchlik bo'lib, amir Shohmurod zamonida Samarqandga kelib qolgan. Oiladagi muhit undagi ma'rifat va adabiyotga bo'lgan qiziqishning tezroq ro'yobga chiqishiga imkon tug'dirdi. Behbudiyning otasi islom xuquqshunosligi bo'yicha yirik mutaxassis bo'lib, bu borada ko'plab kitob va risolalar yaratgan edi. Bu o'z navbatida Mahmudxo'jaga ta'sir o'tkazmay qolmadi. U keyinchalik bu haqda so'zlab, hatto maqolalaridan birida otasi yozgan "Hidoya" ("Islom huquqiga sharhlar") asarining o'z taqdirida katta rol o'ynaganini alohida qayd etgan. Behbudiy ijodiy faoliyati davomida ikki pyesa yozgan. Biri nashr etilmagan. 1911-yili birinchi o'zbek dramasi bo'lgan „Padarkush yoxud O'qimagan bolaning holi“ asarini yozgan. Yozuvchi asar sarlavhasidan so'ng qavs ichida janr va mavzusini „Turkiston maishatidan olingan ibratnoma“ deb keltirgan. Behbudiyning yurt obodligi yo'lida boshlagan ijobiy ishlaridan biri "Behbudiya" kutubxonasining tashkil etilishi bo'ldi. Behbudiy birinchilardan bo'lib Samarqandda kutubxona faoliyatini yo'lga qo'ygan Samarqand hokimining rasmiy ruxsati bilan ushbu kutubxona „Yangi rasochilgan Biroq kutubxonaning ochilishi haqidagi xabar biroz avval chop etilgan. Bu haqda „Turkiston viloyatining gazetida“ da xabar berilgan edi. 27 bobdan iborat bo'lgan dastur kutubxonaning barcha rasmiy masalalarini belgilab bergan. Kutubxonaga yillik a'zolik badali 3 so'mni tashkil etgan. Kutubxonaning asosiy maqsadi mahalliy musulmon yoshlari va madrasa talabalarini zamonaviy ilmlar bilan shug'ullanishga undash bo'lgan.




O'QISHGA TAVSIYA ETAMIZ!

- “Padarkush”
- Muallif: Mahmudxo'ja Behbudiy
- Nashr yili: 2024
- Tili: O'zbek (lotin)
- Betlar: 160
- Nashriyot: Toshkent.: Yangi asr avlodi
- ISBN raqami: 978-9910-9211-5-5

Mahmudxo'ja Behbudiy buyuk ma'rifatparvar yozuvchi, publitsist, dramaturg va jamoat arbobi, jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri. Mahmudxo'ja Behbudiy adabiyot, tarix fanlari qatorida siyosatshunoslik bilan ham jiddiy shug'ullangan. Gazeta va jurnallar orqali jahonda sodir bo'layotgan siyosiy voqealar bilan yaqindan tanishib borgan. U Makkaga borish maqsadida arab tilini o'rganib, islom tarixi va nazariyasi bilan shug'ullangan. U bir qator Sharq va G'arb tillarini bilgan yuksak ma'naviyat sohibi bo'lishi bilan birga, umuminsoniy madaniyatning tolmas targ'ibotchisi ham bo'lgan. Behbudiy o'nlab gazetalar shu qatori “Oyina” jurnalining asoschi hisoblanadi. Ushbu kitobda Behbudiyning hozir ham ahamiyatini yo'qotmagan drama, maqola va hikoyalari yig'ildi.


O'QISHGA TAVSIYA ETAMIZ!

- “Tanlangan asarlar”
- Muallif: Mahmudxo‘ja Behbudiy
- Tuzuvchi: Sirojiddin Ahmad
- Nashr yili: 2021
- Tili: O‘zbek (lotin)
- Betlar: 512
- Nashriyot: Toshkent.: Akademnashr
- ISBN raqami: 978-9943-4299-5-6



XX asrdagi milliy uyg‘onish davri adabiyotining buyuk namoyandasi, millat xodimi Mahmudxo‘ja Behbudiy “Tanlangan asarlar”ining ushbu birinchi jildiga adib badiiy ijodi namunalari, 1903-1918 - yillarda e’lon qilingan ijtimoiy-siyosiy maqolalari, nutqlari kiritildi. Adib taklif etgan siyosiy loyihalar, uning mahalliy va “Ulfam”, “Tarjimon”, “Sho‘ro” kabi xorijiy nashrlarda bosilgan maqolalari, ayrim arxiv materiallari ilk bor e’lon qilinmoqda. Ushbu to‘plam XX asr ijtimoiy-siyosiy va adabiy tafakkurining shakllanishi, milliy uyg‘onish davri bilan qiziquvchi mutaxassis hamda keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

O'QISHGA TAVSIYA ETAMIZ!



- “Mahmudxo‘ja Behbudiy”
- Muallif: Mahmudxo‘ja Behbudiy
- Nashr yili: 2024
- Tili: O‘zbek (lotin)
- Betlar: 192
- Nashriyot: Toshkent.: Turon zamin
- ISBN raqami: 978-9910-9058-3-4

1991-yil 1-sentyabr millatimiz taqdirida ziyo sari tub burilish sodir bo‘lgan ulug‘ kundir. Mustaqillik davriga qadar xalqimiz ma‘rifatdan ayro saqlanib kelindi. Ko‘plab marifatparvarlarimiz boshiga turli savdolar yog‘ildi va ularning nomi sun‘iy tarzda o‘chirilishga harakat qilindi. O‘zbekning o‘rni faqat paxta dalasida ekanligi, uning insoniyligi ham, qahramonligi ham yetishtirgan paxtasi bilan o‘lchanishi borasidagi qarashlar xalqimizga zo‘rlab singdirildi. Biroq Istiqlol sharofati ila tarixiy haqiqatlar tiklandi va biz o‘zligimizni anglay boshladik. Nomi unuttirilgan ma‘rifatparvarlar sha‘niga yog‘ilgan tuhmatlar olib tashlandi hamda ularning risolalari to‘siqlarsiz kengroq tadqiq etila boshlandi. Bundan qirq-ellik yil muqaddam jadidlar nomi ko‘pchilik uchun notanish bo‘lgan bo‘lsa, hozirda har bir yurtdoshimiz jadidlar va ular vujudga keltirgan ma‘rifiy harakatlar haqida tobora ko‘proq ma‘lumotlarga ega bo‘lishmoqda. Jadidlar o‘z vaqtida jamiyat tanazzulining asosiy sababi - aholining ilm-ma‘rifatsizligiga qarshi munosib kurash olib borishgan. Ularning har biri millatimiz qahramoni, ulardan qolgan har bir ma‘naviy me‘ros esa oltindan ham qimmatdir. Shu o‘rinda ijodiy jamoamiz bilan bir qator jadid namoyondalari asarlarini nashr etishga qaror qildik. Ushbu to‘plamga Mahmudxo‘ja Behbudiyning sara asarlari kiritilgan bo‘lib, ularni mutolaa etish jarayonida siz ham jadidlarning o‘sha vaqtlardagi maqsadlari, orzu-umidlari, dard-iztiroblarini yaqindan his etasiz, degan umiddamiz!

O'QISHGA TAVSIYA ETAMIZ!

- “Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar 1-jild”
- Muallif: Mahmudxo‘ja Behbudiy
- Tuzuvchi: Sirojiddin Ahmad
- Nashr yili: 2021
- Tili: O‘zbek (krill)
- Betlar: 512
- Nashriyot: Toshkent.: Akademnashr
- ISBN raqami: 978-9943-4299-5-6



XX asrdagi milliy uyg‘onish davri adabiyotining buyuk namoyandasi, millat xodimi Mahmudxo‘ja Behbudiy “Tanlangan asarlar”ining ushbu birinchi jildiga adib badiiy ijodi namunalari, 1903-1918 yillarda e’lon qilingan ijtimoiy-siyosiy maqolalari, nutqlari kiritildi. Adib taklif etgan siyosiy loyihalar, uning mahalliy va “Ulfam”, “Tarjimon”, “Sho‘ro” kabi xorijiy nashrlarda bosilgan maqolalari, ayrim arxiv materiallari ilk bor e’lon qilinmoqda. Ushbu to‘plam XX asr ijtimoiy-siyosiy va adabiy tafakkurining shakllanishi, milliy uyg‘onish davri bilan qiziquvchi mutaxassis hamda keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

O'QISHGA TAVSIYA ETAMIZ!




- “Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar 2-jild”
- Muallif: Mahmudxo‘ja Behbudiy
- Tuzuvchi: Sirojiddin Ahmad
- Nashr yili: 2021
- Tili: O‘zbek (krill)
- Betlar: 512
- Nashriyot: Toshkent.: Akademnashr
- ISBN raqami: 978-9943-4299-6-3

XX asr o‘zbek milliy uyg‘onish davri adabiyotining buyuk namoyandasi, millat qahramoni Mahmudxo‘ja Behbudiy “Tanlangan asarlar”ining ushbu birinchi jildiga adabiy- mantiqiy va publisistik maqolalari, safar xotimalaridagi esdalik va bag‘ishlovlari kiritildi. Ushbu nashr XX asrdagi milliy uyg‘onish davri tarixi va adabiyoti bilan qiziquvchi mutaxassislar hamda keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.


O'QISHGA TAVSIYA ETAMIZ!

- “Mahmudxo‘ja Behbudiy. Jadidlar”
- Muallif: Zaynobiddin Abdirashidov
- Nashr yili: 2022
- Tili: O‘zbek (lotin)
- Betlar: 156
- Nashriyot: Toshkent.: Yoshlar nashriyot uyi
- ISBN raqami: 978-9943-6682-2-5



Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan milliy uyg‘onish harakatining atoqli rahbarlaridan biri bo‘lib, shu davrda o‘zbek xalqi ijtimoiy ongining uyg‘onishida muhim rol o‘ynadi. U Turkistonda yangi usul maktablarining ochilishi va milliy matbuotning yuzaga kelishida faol ishtirok etdi, birinchi o‘zbek dramasini yaratib, professional o‘zbek teatr san’atining paydo bo‘lishiga zamin hozirladi. U xalq va jamiyatni ma’rifatlantirish orqali mustaqillikka erishish g‘oyasini olg‘a surgan, shu qutlug‘ g‘oya va maqsad yo‘lida halok bo‘lgan ulug‘ ajdodimizdir.

O'QISHGA TAVSIYA ETAMIZ!




- “Mahmudxo‘ja Behbudiy. Buyuk siymolar”
- Muallif: Naim Karimov
- Nashr yili: 2011
- Tili: O‘zbek (krill)
- Betlar: 80
- Nashriyot: Toshkent.: O‘zbekiston
- ISBN raqami: 978-9943-01-675-0

Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan milliy uyg‘onish harakatining atoqli rahbarlaridan biri bo‘lib, shu davrda o‘zbek xalqi ijtimoiy ongining uyg‘onishida muhim rol o‘ynadi. U Turkistonda yangi usul maktablarining ochilishi va milliy matbuotning yuzaga kelishida faol ishtirok etdi, bu bilan kifoyalaniq qolmay, birinchi o‘zbek dramasi yaratib, professional o‘zbek teatr san’atining paydo bo‘lishiga zamin hozirladi. U xalq va jamiyatni ma’rifatlantirish orqali mustaqillikka erishish g‘oyasini olg‘a surgan, shu qutlug‘ g‘oya va maqsad yo‘lida halok bo‘lgan ulug‘ ajdodimizdir. Ushbu risola siz – hurmatli kitobxoniga Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, adabiy va ijtimoiy faoliyati bilan yaqindan tanishish imkonini beradi deb umid qilamiz.

O'QISHGA TAVSIYA ETAMIZ!

- “Mahmudxo‘ja Behbudiy. Buyuk siymolar”
- Muallif: Naim Karimov
- Nashr yili: 2022
- Tili: O‘zbek (krill)
- Betlar: 320
- Nashriyot: Toshkent.: Akademnashr
- ISBN raqami: 978-9943-7577-3-8



Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan milliy uyg‘onish harakatining atoqli rahbarlaridan biri bo‘lib, shu davrda o‘zbek xalqi ijtimoiy ongining uyg‘onishida muhim rol o‘ynadi. U Turkistonda yangi usul maktablarining ochilishi va milliy matbuotning yuzaga kelishida faol ishtirok etdi, bu bilan kifoyalanib qolmay, birinchi o‘zbek dramasi yaratib, professional o‘zbek teatr san’atining paydo bo‘lishiga zamin hozirladi. U xalq va jamiyatni ma’rifatlantirish orqali mustaqillikka erishish g‘oyasini olg‘a surgan, shu qutlug‘ g‘oya va maqsad yo‘lida halok bo‘lgan ulug‘ ajdodimizdir. Ushbu risola siz – hurmatli kitobxoniga Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, adabiy va ijtimoiy faoliyati bilan yaqindan tanishish imkonini beradi deb umid qilamiz.

O'QISHGA TAVSIYA ETAMIZ!



- “Mahmudxo‘ja Behbudiy”
- Muallif: Sirojiddin Ahmad
- Nashr yili: 2024
- Tili: O‘zbek (krill)
- Betlar: 456
- Nashriyot: Toshkent.: Info Capital Books
- ISBN raqami: 978-9910-9466-8-4

Ushbu kitobda XX asr Turkiston milliy uyg‘onish davri adabiyotining buyuk namoyandasi, adib, publitsist, noshir va muharrir, jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va faoliyati haqida fikr yuritiladi. Asarga adibning “Vaqt”, “Ulfat”, “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Tujjor”, “Samarqand”, “Siroti mustaqim” nashrlarida bosilgan va avvalgi ikki jildlikka kirmagan maqolalari kiritildi. Ilk bor adib asarlarining fixristi ilova qilindi. Ushbu asar XX asr adabiy, ijtimoiy-siyosiy tafakkuri, milliy uyg‘onish davri bilan qiziquvchilar va keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan. Arxiv materiallari va tarixiy sur‘atlar o‘rin olgan.

IZBOSKAN TUMANI AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI

Axborot kommunikatsiya va raqamlashtirish xizmati

EʼTIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!
BIZNI IJTIMOY TARMOQLARIMIZDA KUZATIB BORING!

- ▶ **Bizni kuzatishda davom eting!!!**
👇👇👇
- ▶ **Facebook:** https://www.facebook.com/profile.php?id=61574646792252&locale=ru_RU
- ▶ **Instagram:** https://www.instagram.com/izboskan_akm/
- ▶ **Telegram:** <https://t.me/izboskantumanakm/9642>
- ▶ **YouTube:** <https://www.youtube.com/@izboskantumaniakm>
- ▶ **X.com:** <https://x.com/home?lang=ru>